		, 4b- parhez , 4v- parhez, 5- parhez, 5a- parhez , 5sh- parhez , 5p- parhezga, 13- parhezg 15- parhez, 7b-parhez , 7-parhez 14-parhez, 10-parhez , 10a-parhez , 11-parhez, 8-parhez ,9-parhezlarni tuzishni.
O'quv muvofiq bog'liq modul nomi	rejaga o'zaro bo'lgan	<ol style="list-style-type: none"> 1. Anatomiya, fiziologiya va patologiya 2. Farmakalogiya va retseptura asoslari 3. Tibbiy biologiya va umumiy genetika 4. Jamiyat sog'liqni saqlash va tibbiy statistika 5. Valeologiya 6. Hamshiralik ishi 7. Terapiyada hamshiralik ishi 8. Xalq tabobati
O'qitishni tashkiliy shakli		N – nazariy A – amaliy
Dasturga qo'yilgan talab		Majburiy
O'qitish tili		Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi		Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholash		Yozma, og'zaki, savol – javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko'nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2.O'quv dasturi mazmuni

No	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Jami soat	Jstaqil ta'im
1	Nutrisiologiya va Diyetologiya haqida tushuncha. Hazm organlarining anatomik-fiziologik xususiyatlari	Nutrisiologiya va Diyetologiya haqida tushuncha. Modulning rivojlanish tarixi. Nutrisiologiya va Diyetologyaning maqsad va vazifalari. Hazm organlarining anatomik - fiziologik xususiyatlari.	4	N 2	2
2	Ovqat va uning tarkibi.	Oziq moddalar: Oqsillar. Yog'lar. Uglevodlar. Vitaminlar. Mineral moddalar (Ca. K. Fe. P. Na). Ovqat mahsulotlari (non, go'sht, sut, baliq, tuxum, yog'lar, sabzavotlar, mevalar) va boshqa oziq moddalarning inson organizmida ahamiyati.	10	N 2 A 4	4

3	Ovqatning kaloriyaliligi va ovqatlanishning fiziologik normalari.Ovqat mahsulotlarining ozuqaviy va biologik qiymati	Ovqatning kaloriyaliligi va ovqatlanishning fiziologik normalari. Turli yoshdagi va toifadagi odamlarning ovqatga bo'lgan ehtiyoji issiqlik birliklari (kaloriyalar). Katta kaloriyalar. Inson organizmining oziq moddalar va energiyaga bir kunlik o'rtacha ehtiyojining me'yori. Turli oziq moddalarning iste'mol qilishga tavsiya etilgan sutkalik ehtiyojining fiziologik me'yori. Mahxsulotlarning biologik qimmati.Don mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va tuxum mahsulotlari, sabzavot va mevalar, qandolat mahsulotlari; ovqat konsentratlari, ta'm beruvchi mahsulotlar.	10	N 2 A 4	4
4	Ratsional ovqatlanishning asosiy prinsiplari. Oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor taomlarning shifobaxsh xossalari	Organizmning normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan vitaminlar, mikroelementlar va boshqa moddalar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi. Oziq-ovqat ma'sulotlari va tayyor taomlarning shifobaxsh xossalari. Ayrim o'zbek taomlarining to'yimliligi va quvvati. Oziq - ovqat mahsulotlarining shifobaxsh xossalardan sharq tabobati asoschisi Abu Bakr ar-Roziy ayrim kasalliklarda tavsiya etiladigan ma'lum turdagи masalliqlar va tayyor taomlar.	14	N 2 A 8	4
5	Homilador, ko'zi yorigan va emizikli ayollarning ovqatlanish jihatlari.	Homilador ayollar uchun jarayonning 1 va 2- yarmida tavsiya etiladigan kundalik oziq - ovqatli mahsulotlar va ularning miqdorlari. Ko'zi yorigan ayolga tavsiya etiladigan kundalik oziq-ovqatli mahsulotlar va ularning miqdorlari. Emizikli ayollarga tavsiya etiladigan kundalik oziq-ovqatli mahsulotlar va ularning miqdorlari. Ona suti va uning xususiyatlari. Ona sutining turli davrlari: og'iz suti, o'tish davri, doimiy sut davrlari va ularning tarkibi, xossalari, ahamiyati. Gipo va agalaktiya haqida tushuncha. Gipo va agalakiyada parhez ovqatlanish. Ona sutini ko'paytirish bo'yicha Ibn Sino tavsiysi.	10	N 2 A 4	4
6	Bolalar va o'smirlar ovqa-tining gigienik asoslari.	Bolalik davrlari xususiyatlari. Bolalikning turli davrlarida ularni ovqatlantirish. Turli oziq moddalariga bo'lgan ehtiyoj. Ona suti bir yoshgacha bo'lgan bolalarni ovqatlanishi uchun to'laqonli mahsulot. Qo'shimcha ovqatlarni tayyorlash va berish tartibi.Uglevodlarga, oqsillarga, yog'larga, mineral moddalarga va suyuqlikka bo'lgan extiyoji. Bolalar oromgochlari, maktabgacha yoshdagi, maktab o'quvchilari, maktab – internat-lar va talabalarning	10	N 2 A 4	4

		ovqatlanishini tashkil etish.			
7	DPMlarda parhez ovqatlanishni tashkil etish va holatiga gigienik baho berish.	DPMlarda parhez ovqatlanishni tashkil etish. DPMlarda buyuriladigan parhez stollarining asosiy tavsifi, kimyoviy tarkibi va quvvatmandligi. Tavsiya etiladigan va tavsiya etilmaydigan mahsulot turlari, davolovchi – profilaktik ovqatlanishning alohida xususiyatlari, davolovchi – profilaktik parhez ovqatlanish ratsioniga baho berish bo'yicha menu – taomnoma tuzish, tetiklashtiruvchi va davolovchi ovqatlanish ko'nikmalari.	14	N 2 A 8	4
8	Ovqatdan zaharlanish. Ovqat toksikoinfeksiya-lari.	Ovqatdan zaharlanish ta'lomitining kelib chiqish davrlari, ovqatdan zaharlanish tushunchasi va tasnifi. Ovqat toksikozlari va mikotoksikozlari; turli moddalardan zaharlanish. Asosiy guruhga kiruvchi pestitsidlar xaqida ma'lumotlar. Pestitsidlarning aholi salomatligiga ta'siri.	14	N 2 A 8	4
9	Ahvoli og'ir bemorlarni, keksa va qariyalarni ovqatlantirish	Ahvoli og'ir bemorlarni, keksa va qariyalarni ovqatlantirish. Ovqatlantirish uchun zarur anjomlar, sharoitni hozirlash. Bemor faolligi darajasi (yarim faol, og'ir) ga qarab ularni ovqatlantirish jarayonini (qoshiqdan yoki ichgichdan) tanlash. Og'ir bemor va keksalarning ishtahasiga e'tibor qaratish. Sun'iy (enteral va parenteral) ovqatlantirish.	8	N 2 A 4	2
10	Yurak qon-tomir va siydik ajratish a'zolari kasallikkleri, Asab, qandli diabet va modda almashinuvi buzilgan kasallikklerida taomnoma tuzish taomnoma tuzish	Buyrak a'zolari kasallikklerida taomnoma tuzish: 7a-parhez, 7b-parhez, 7-parhezga ko'rsatmalar va moneliklar, tayinlashdan maqsad, tayyorlash usuli tarkibi va tavsiya qilinnadigan mahsulot va taomlar ro'yxati. Yurak qon-tomir va siydik ajratish kasallikklerida taomnoma tuzish: 10-parhez, 10a-parhezga ko'rsatmalar va moneliklar, tayinlashdan maqsad, tayyorlash usuli tarkibi va tavsiya qilinnadigan mahsulot va taomlar ro'yxati. Asab, qandli diabet va modda almashinuvi buzilgan kasallikklerida taomnoma tuzish: 8-parhez, 9-parhez, 12- parhez, ko'rsatmalar va moneliklar, tayinlashdan maqsad, tayyorlash usuli tarkibi va tavsiya qilinnadigan mahsulot va taomlar ro'yxati.	8	N 2 A 8	2
		Jami:	108	72	36

3.O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muofiq bo'lishi lozim.

4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Prezident asarlari

- 1.Shavkat Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
- 2.Shavkat Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
3. Shavkat Mirziyoyev "[Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz](#)"Toshkent – "O'zbekiston" -2016.
4. Shavkat Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
5. Shavkat Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
6. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
7. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi "Toshkent – "O'zbekiston"-2019.

Asosiy adabiyotlar

1. V.M.Saidov. "Diyetologiya". Toshkent, "Iqtisod-moliya" nashriyoti 2008 yil.
2. Baxritdinov Sh. S., Xudayberganov A. S. "Nutritsiologiya", o'zbek tilida, Toshkent. – Ibn sino. 2001 yil.
3. Karimov Sh. I. umumiy tahriri ostida "Sog'lom ovqatlanish –salomatlik mezoni", o'zbek tilida. Darslik. – Toshkent. 2001 yil.
4. M.A.Maksumova «Ovqatlanish fiziologiyasi asoslari sanitariya va gigiyena », o'zbek tilida. Toshkent « Voris nashriyoti » 2017 yil.
5. Shadmanov A. M., Asadov D. A. "Lechebnoe pitanie", rus tilida. Darslik. Toshkent. 2001 yil.
6. Normatova Sh. A., Ruzmatova X.Q. « Ovqatlanish gigienasi » majmua. TTAFF « Gigienava JSS » kafedrasi 2019 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Irgashev Sh.B. "Valeologiya". Toshkent, 2015
2. Ziyayeva M.F. Xodjasheva M.D."Kattalarda (terapeutik kasalliklar va klinik tekshiruvlar)da hamshiralik parvarishi" "Voris- nashriyot" Tashkent 2017y
3. Ermetova D.I. "Terapiya" Tashkent, "Ilm Ziyo" nashriyoti , 2015 yil.
4. Ya.N. Allayorov."Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi" Toshkent 2016
5. Razikova I. S., Alikulova D. Ya. Gerontologiyada Hamshiralik ishi, Darslik (o'zbek tilida). Toshkent 2018 y.
6. M.F.Ziyayeva. Z.O.Rizayeva. "Bolalarda hamshiralik parvarishi". Toshkent, "Fan va texnologiya" 2012 yil.
7. "Onalarga bolalarni oziqlantirish va parvarish bo'yicha tavsiyalar" O'quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
8. "Effektivnyy perinatalnyy uxod. Akusherstvo (Integrirovannoe vedenie beremennosti i rodov) 2014 y (YuNISEF).
9. "5 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'sishi va rivojlanishi" O'quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
10. "Onalarga bolalarni oziqlantirish va parvarish bo'yicha tavsiyalar" O'quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
11. "Bola-sog'lom bo'lsin desangiz". O'quv kursi.Toshkent, 2013 y.
12. "Bemor bolalarni parvarish qilish va onalarga maslahat berish" Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2010 y.
13. "Qiz bolalarni o'sishini baholash va kuzatish hamda ko'rsatkichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish". O'quv kursi. Toshkent-2009 yil.(YuNISEF).
14. "O'g'il bolalarni o'sishini baholash va kuzatish hamda ko'rsatgichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish" O'quv kursi. Toshkent, 2009.

15. "Ko'krak suti bilan boqish bo'yicha maslahat olib borish o'quv kursi" o'qituvchilar uchun qo'llanma. Toshkent, 2007y
16. N.V.Yejova «Pediatriya» Minsk, 2007 god.
17. V.D.Tulchinskaya «Sestrinskoe delo v pediatrii» Rostov-na Donu, «Feniks», 2003 yil.

Internet saytlari:

1. www.med.uz.
2. www.medical.ru.
3. www.minzdrav.uz
4. www.tma.uz.
5. www.tashpmi.uz.
6. www.ziyonet.uz.
7. www.wikipedia.uz.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI**

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIM DARAJASI

40910206 -“Tibbiyot brigadasi hamshirasi” mutaxassisligi

FAVQULOTDA HOLATLAR TIBBIYOTI

O'QUV DASTURI

Kvalifikatsiya **1.Patronaj hamshirasi**

2.Amaliyotchi hamshira

O`quv rejadagi tartib raqami: **2.06**

Ajratilgan auditoriya soat: **72**

Toshkent 2024 yil

O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti instituti Sog'liqni saqlash yo'nalishlari i O'quv metodik birlashmasining 2024-yil 25-iyuldaggi 3-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 22-iyuldaggi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2024-yil 1- avgustdagi 277-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

Eshbobo耶va S.Q.

Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Bobо耶va N.S.

Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi

1.O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar

O'quv dasturining nomi	Favqulotda holatlar tibbiyoti
Ajratilgan soat	72 soat
Mavzular soni	12
Dasturning maqsadi	<p>O'quvchilarning fanga oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali ularda tinchlik davridagi favqulotda vaziyat uning turlari va o'ziga hosligi, aholi va hududlarni ta'sir qiluvchi omil ta'siridan saqlash, favqulotda vaziyatlarda sharoitga to'g'ri baxo berish, shikastlanganlarni qidirib topish, tashish usullari, tibbiy saralashni o'tkazish, birinchi tibbiy va shifokorgacha bo'lgan yordamni o'rgatish bo'yicha bilimlarni shakllantirish;</p> <p>Nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq etgan holda bevosita shikastlanganlarni bilan o'zaro muloqot qilish, tibbiy saralashni o'tkazish, birinchi tibbiy va shifokorgacha bo'lgan yordamni o'rgatish bo'yicha bilimlarni shakllantirish asosida hamshiralik jarayonini amalga oshirishga zamin yaratish;</p> <p>Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash orqali shikastlanganlarda kuzatiladigan turli shoshilinch holatlarda hamshiralarning bilim va amaliy tayyorgarligini ta'minlash;</p> <p>Nazariy va amaliy darslar o'tish orqali shikastlanganlarga dala sharoitida birinchi tibbiy yordam xususiyatlarini bo'lajak hamshiralarga o'rgatish.</p>
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	Talabalar fanga oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali ularda tinchlik davridagi favqulotda vaziyat uning turlari va o'ziga hosligi, aholi va hududlarni ta'sir qiluvchi omil ta'siridan saqlash, favqulotda vaziyatlarda sharoitga to'g'ri baxo berish, shikastlanganlarni qidirib topish, tashish usullari, tibbiy saralashni o'tkazish, birinchi tibbiy va shifokorgacha bo'lgan yordamni o'rgatish bo'yicha bilimlarni shakllantirishga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar
Bilim	<ul style="list-style-type: none"> - tinchlik davridagi favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha, ularni kelib chiqish sabablari, manbalari, turlari; - favqulotda vaziyatlarda shikastlanganlarga shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish; - tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlarda fuqarolarga tibbiy yordamni tashkil etish; - texnogen hususiyatli favqulotda vaziyatlarda fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish; - halqaro terrorizm, tushunchasi turlari, terroristik akt sodir etilganda axoli xarakati; - o'tkir zaharlanishlar. Hayvon tishlashi, ilon va hashorotlar chaqishida tibbiy yordamni ta'minlash; - radiatsiyadan shikastlanish, uning ta'rifi. Birinchi tibbiy yordam va shifokorgacha bo'lgan yordam ko'rsatish xususiyatlari; - O'ta havfli kasalliklar. o'ta havfli kasalliklar o'choqlarida epidemiyaga qarshi sanitariya-gigiena chora-tadbirlari;
Ko'nikma	<ul style="list-style-type: none"> - shaxsiy muhofaza vositalarini qo'llash; - og'iz bo'shlig'i va yuqori nafas yo'llari holatini tekshirishni, yot jismlardan tozalash; - o'pkaga sun'iy nafas berish va yurakni bilvosita uqalash; - qon ketishlarni vaqtincha to'xtatish;

	<ul style="list-style-type: none"> - gemorragik shokda, kardiogen shokda, anafilaktik shokda va talvasa sindromida shoshilinch tibbiy yordam kursatish; - kasalxonadan tashqarida tug'ishda ayollarga shifokorgacha yordam ko'rsatish; - immobilizatsiya qilish, Krammer, Ditriks va boshqa shinalar turlaridan foydalanish; - uzoq vaqt bosilib qolish (Krash sindromida), travma shokida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish; - cho'kish, kuyish shokida va elektr tokidan jarohatlanganda, shoshilinch birinchi yordam ko'rsatish; - KTZM (ammiak, xlor va fosforoorganik modda) lardan va is gazidan zaxarlanganda tez tibbiy yordam ko'rsatish; - terrorchilik xavfi yuzaga kelganda, garovga olinganlarning va egasiz buyumni ko'rib qolgandagi harakat qoidalari; - ruxiy qo'zg'alishlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish; - o'tkir zaharlanishda me'dani zondlash, chayish; - hayvon tishlaganda, ilon, chayon va ari chaqqanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; - ionlovchi nurlardan shikastlanishni oldini olish va tibbiy yordam ko'rsatish; - qisman, to'liq sanitar ishlov va dezaktivatsiya, degazatsiya o'tkazish; - o'ta xavfli infeksiyalarda maxsus kiyimlarni kiyish, yechish va infeksiya manbalarini zararsizlantirish; - observatsiya va karantin choralarini o'tkazish muolajalarini bajarish bo'yicha ko'nikmalar shakllanadi.
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fan nomi	<ul style="list-style-type: none"> - Anatomiya, fiziologiya va patologiya - Farmakalogiya va retseptura asoslari - Umumi gigiena va ekologiya - Xirurgiya va reanimatsiya asoslari - Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi - Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi - Hamshiralik ishi - Bolalar kasalliklarida hamshiralik ishi - Terapiyada hamshiralik ishi - Psixologik parvarish - Tibbiy reabilitatsiya
O'qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy A – amaliy

Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy b holash tartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikma bilan baholash	Yozma, og'zaki, savol – javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko'nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2.O'quv dasturining mazmuni

Nº	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Jami soat	Mustaqil ta'im
1.	Tinchlik davridagi favqulotda vaziyatlar haqida tushunchalar. Ularning kelib chiqish sabablari, manba'lari, turlari. F.V.D.T nizomi qonunlari.	<p>Favqulotda vaziyatlar, xalokatlar haqida asosiy tushunchalar. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalarini.</p> <p>Sog'liqni saqlash tashkilotlarining favqulotda vaziyatlarda vazifalari, "Qizil yarim oy" jamiyatining aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha vazifalari. Respublika shoshilinch tibbiy yordam Ilmiy Markazi (RShTYoIM) va uning viloyatlardagi filiallari haqida ma'lumot. Ommaviy shikastlar vaqtida shikastlanganlarni izlash, topish, qutqarish, tibbiy saralash va evakuatsiya qilish. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Tibbiy yordam turlari tizimi (birinchi tibbiy yordam, shifokorgacha bo'lgan tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali tibbiy yordam, ixtisoslashgan tibbiy yordam). F.V.D.T va sog'liqni saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari .</p> <p>Shaxsiy muhofaza vositalarini qo'llashni: nafas a'zolari va teri qoplamlari uchun shaxsiy muhofaza vositalari. IP-4, IP-5, respiratorlar, ximoyalovchi kiyimlar. AI-2 (shaxsiy aptechka), kimyoga qarshi paket, individual bog'lov paketi, suvdondagi suvni zararsizlantirish uchun vosita (pantotsid, akvasept).</p> <p>Shikastlanganlar holatiga baho berish, tibbiy saralash va yordam turini belgilash. Terminal holatlar tasnifi, klinik va biologik o'lim, yurak va nafas olish faoliyatining to'satdan to'xtashi. O'tkir nafas yetishmovchiligi. O'pka-yurak reanimatsiyasi. Birinchi tibbiy yordam boshlash muddatlarini va unda kuzatiladigan natijalarni.</p>	6	N 2	4
2.	Favqulotda vaziyatlarda shikastlanganlarga shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish	Favqulotda vaziyatlarda jarohatlanish turlari, ularda qon oqishi turlari, sabablari belgilari. Arterial, venoz, kapillar, parenximatoz qon oqishlarining belgilari, farqlari. Qon oqishni to'xtatish xususiyatlari, usullari, qonun-qoidalari. Qon ketishining asoratlari, gemorragik shok, o'tkir qon yetishmovchiligi, belgilari, oqibatlari. Jarohatlangan joyni immobilizatsiya qilish tushunchasi, turlari, qonun-qoidalari. Favqulotda vaziyatlarda kasalxonadan tashqarida tug'ishning	10	N 2 A 8	4

		<p>Birinchi tibbiy yordam boshlash muddatlarini va unda kuzatiladigan natijalarni. Favqulotda vaziyatlarda jabrlanganlarga shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish qon ketishini vaqtincha to'xtashish usullarini o'rghanish, ko'p qon yo'qotganlarga qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar quyish, qon quyishda qatnashish, gemorragik shok, gemotransfuzion shokda tez tibbiy yordam ko'rsatish.</p> <p>Favqulotda vaziyatlarda jarohatlanishlarda vaqtincha immobilizatsiya o'tkazish. Turli tusdagi shinalar ishlatish (Kramer, Diterixs, tarnovsimon, Filberg, vakuyumli). Qo'l ostidagi bor narsalar bilan vaqtincha immobilizatsiya o'tkazish.</p>			
3.	Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlarda fuqarolarga tibbiy yordamni tashkil etish.	<p>Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlar tasnifi (yer qimirlashi, suv toshqinlari, sel, ko'chkilar, dovul, to'fon). Ularda kuzatiladigan odam hayoti va sog'lig'iga havf tug'diradigan holatlar va jarohatlar (qon ketish, yumshoq to'qimalar jarohati, suyak chiqishi va sinishi, uzoq vaqt bosilib qolish sindromi - "Krash" sindromi, cho'kish, markaziy nerv sistemasi tomonidan o'zgarishlar, travmatik shok, talvasa sindromi). Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlarda jarohatlangan aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun jalg qilinadigan kuch va vositalar. 19.07.2011 yildagi "Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulotda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tusdagi) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 280-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori.</p> <p>Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlarda shikastlanganlarni izlash, topish, birinchi yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish. Bosh suyagi, qorin sohasi, umurtqa pog'onasi, qo'l va oyoq jarohatlarida, bosilib qolishlarida tez tibbiy yordam ko'rsatish. Travma shokida, cho'kishda, talvasada birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Evakuatsiya bosqichlarida shikastlanganlarni davolash va kuzatib borish.</p>	14	N 2 A 8	4
4	Texnogen xususiyatlari favqulotda vaziyatlarda fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish.	<p>Texnogen tusdagi favqulotda vaziyatlar turlari, kelib chiqish sabablari. Yong'in, portlash, zarba to'lqini ta'sirida kuzatiladigan jarohatlar turlari. Texnogen tusdagi favqulotda vaziyatlarda jarohatlanish turlarini: kuyish, yelektr tokidan jarohatlanish, tushunchalari, turlari, belgilari, davrlari, darajalarini, asoratlari.</p> <p>Birinchi tibbiy yordam berish va evakuatsiya qilish. Yong'indan xavfli ob'ektlarda favqulotda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar. O'zbekistondagi kimyoviy xavfli ob'ektlar. Kuchli ta'sirli zaxarli moddalar(KTZM)lar tasnifi. Zaharli</p>	16	N 4 A 8	4

		moddalarning organizmga kirish yo'llari, KTZMlar (xlor, ammiak, sinil kislotasi, is gazi, FOM-fosforoorganik moddalar) bilan zaharlanganda klinik belgilar. Texnogen tusdagi favqulotda vaziyatlarda (termik, kimyoviy kuyishlarda, kuyish shokida, elektr tokidan shikastlanish) shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish va kuzatib borish. Is gazidan zaxarlanganda birinchi yordam ko'rsatishni. KTZM(ammiak, xlor va fosforoorganik modda)lardan zaharlanganda tez tibbiy yordam ko'rsatishni. Fuqarolarni muhofazalash vositalarini qo'llash. Shikastlanganlarga o'choq ichida va tashqarisida tibbiy yordam ko'rsatish.			
5.	Xalqaro terrorizm tushunchasi, turlari. Terroristik akt sodir etilganda aholi harakati.	<p>Terrorizm rivojlanish tarixi, turlari, xalqaro terrorizm, terrorchi, garovga ushlab turilgan shaxs tushunchalari, terrorchilikning maqsadlari, terrorchilik aktlarini o'tkazishda qo'llaniladigan vositalar. Terrorchilik holati sodir etilganda axolining xattiharakati. Terrorchilik holati sodir etilganda tibbiy yordamni tashkil qilish.</p> <p>Terrorchilik xavfi yuzaga kelganda harakat qoidalari. Terroristik aktlarida shikastlanganlarga tez tibbiy yordam ko'rsatishni. Garovga olinganlarning harakat qoidalari, havfli egasiz buyumni aniqlangandagi harakat. Shikastlanganlarni saralash. Portlovchi moddalar, o'q otar qurollardan shikastlanganda, ruhiy qo'zg'alishlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.</p>	8	N 2 A 4	2
6.	O'tkir zaharlanishlar. Hayvon tishlashi, ilon va qumursqalar chaqishida tibbiy yordamni ta'minlash.	<p>Zaharlanish tushunchasi, turlari, maishiy, tasodifiy zaharlanish. Hayotda ko'p uchraydigan zaharlanish (dori preparatlaridan, alkogoldan, narkotik moddalardan, oziq-ovqatlardan, kislotva ishqorlardan, ilon chaqishi, hayvon tishlashi, zaharli hashoratlar chaqishi, ari, chayon) oqibatida kelib chiqadigan klinik belgilar, shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish xususiyatlari. Anafilaktik shok, gipertermik sindrom. Detoksikatsiya tadbirlarini o'tkazish. O'tkir zaharlanishlarning oldini olish.</p> <p>O'tkir zaharlanishlar: ovqatdan zaharlanish, sirka kislotasidan, zaharli o'simliklardan va dori-darmonlardan, alkogol va giyohvand moddalardan zaharlanishda bemor holatiga baho berish. Tez tibbiy yordam ko'rsatish: shifokorgacha, shifokor yordamini ta'minlash. Evakuatsiya qilish. Me'dani zondlashni va chayishni. Ho'qna va kateterizatsiya o'tkazishni.</p> <p>Hayvon tishlashi, ilon, chayon, ari va boshqa xashoratlar chaqqanda zaharlanganlar holatiga baxo berish, tez tibbiy yordam ko'rsatish, tishlangan jarohatga ishlov berish. Oral regidrotatsiya o'tkazish. Kvinke shishi va allergik reaksiyalarda tez tibbiy yordam</p>	14	N 2 A 8	4

7.	O'ta havfli kasalliklar. O'ta havfli kasalliklar o'choqlarida epidemiyaga qarshi sanitariya-gigiena chora-tadbirlari	<p>Epidemiya, epidemiologik jarayon, inkubatsiya davri tushunchasi. Epidemik o'choqlarning tibbiy-taktik tavsifi. Epidemik o'choqlarning ta'rifi. Yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishi xavfini kuchaytiradigan omillar. Dezinfeksiya o'tkazishning barcha usullari (mexanik, fizik, kimyoviy). Dezinseksiya va deratizatsiya o'tkazish. Favqulotda vaziyatlarda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar. Infeksiya manba'larini zararsizlantirish usullari, infeksiya o'tish yo'llarini uzib qo'yish tadbirdi. O'ta xavfli infeksiyalar, ulardan muhofazalanish vositalari. Observatsiya, karantin choralarini o'tkazish. IShTYoIB, XEKB, SPB, EKIB vazifalari, ishi. Neyrotoksikozda shoshilinch tibbiy yordam. Kontagiozlik. Halokat o'choqlarida tibbiy sanitariya oqibatlarini tugatish hamda sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish uchun jalb etiladigan kuch va vositalar.</p> <p>Epidemiologik o'choqlarda vaziyatga baho berish, zararlanganlarni hisobga olish, izolyatsiya qilish, kontaktda bo'lganlarni kuzatish, profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish.</p> <p>Dezinseksiya, deratizatsiya va dezinfeksiya ishlarni o'tkazish. Infeksiya o'choqlarini zararsizlantirish. Infeksiyaga qarshi dori vositalari va ularni qo'llash. Observatsiya va karantin ishlarni o'tkazish.</p>	9	N 2 A 8	4
8.	Radiatsiyadan shikastlanish va uning ta'rifi. Birinchidagi tibbiy yordam va shifokorgacha bo'lgan yordamni ko'rsatish xususiyatlari	<p>Xalq xo'jaligidagi ob'ektlarda radiatsion halokatlar xavfi. Xavf manbai yuqori bo'lgan ob'ektlar xavfsizligini ta'minlash. Maxsus muhofaza inshootlari, oddiy yashirin joylari haqida tushuncha, muhofaza inshootlarining tuzilishi va tasnifi. Odamlar va hududlarni maxsus ishlovdan o'tkazish. Radiatsion nuring shikastlovchi omillari.. Radiatsiya nurlaridan zararlanish, ionlovchi nurlarning biologik ta'siri. O'tkir nur kasalligi tushunchasi, davrlari, belgilari, davolash va parvarishlash. Surunkali nur kasalligi belgilari, davolash. Ommaviy muhofaza vositalari, radiatsiyaga qarshi pana joylar. Ionlovchi nurlardan shikastlanishni oldini olish, shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va davolash uchun qo'llaniladigan meditsina vositalarini. Dezaktivatsiya va degazatsiya o'tkazish. Fuqarolar muhofazasi tuzilmalari. Radiatsion zonadan aholini evakuatsiya qilish xususiyatlari.</p> <p>Radiatsiyadan zararlanganlarni qidirib topish, qutqarish, saralash, shoshilinch va shifokorgacha yordam berish. Maxsus gazniqoblar, respirator, niqoblardan foydalanish. Maxsus kiyimlar: kombinezon, maxsus yoping'ich (plash nakidka), rezina qo'lqoplar, etiklardan foydalanish. Evakuatsiya qilish va kuzatish. Qisman va to'liq sanitar ishlov o'tkazish. Dezaktivatsiya va degazatsiya. AI-2, kimyoviy vositalarga qarshi individual paket,</p>	9	N 4 A 8	8

		suvdondagi suvni zararsizlantirish uchun vositalar (pantotsid, akvosept)dan foydalanish.			
		Jami:	108	72	36

2. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. A.Gadayev, M.F Ziyayeva va R.To'rakulova "Terapiya" "Yosh avlod matbaa" 2022 yil.
2. S.R Hakimho'jayeva, D.A Nabiyeva "Tibbiyot kasbiga kirish" "Yosh avlod matbaa" 2022 yil.
- 3.A.G Gadoyev, D.A Nabiyeva va A.N Aripova « Ichki kasalliklar» Muhamarrir nashriyoti 2021 yil
4. O.M Ibragimov, A.K Jamolov "Fiziologiya" Shafoat Nur Fayz 2022 yil.
5. Razikova I. S., Alikulova D. Ya. Gerontologiyada Hamshiralik ishi, Darslik (uzbek tilida). Toshkent 2018 y.
5. Krasnov A.F. Sestrinskoe delo (I – II tom), Uchebnoe posobie. Elektronnyy uchebnik Moskva. 2000 g.
6. Turchina J.Ye., Myagkova Ye.G. Sestrinskoe delo v geriatriji , Uchebnoe posobie. Rostov-na-Donu. 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 2015 yil 25 martdagи 123-sonli "OIV infeksiyasini oldini olish chora tadbirdari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida " gi buyrug'i
2. Razikova I. S., Alikulova D. Ya., Xaydarova Z. T., O'talov Q. Q. "Gerontologiyada hamshiralik ishi" darslik. Toshkent 2013 y.
3. Rustamova M., Xo'jamberdiev M. Geriatriya, Darslik. Toshkent 2012 y.
4. Pod redaksiey G.P. Kotelnikova Sestrinskoe delo professionalnye dissiplinly, Uchebnik. Rostov – na –Donu. "Feniks" 2007 g
5. Gadoev A.G. Ichki kasalliklar propedevtikasi, Darslik. Toshkent 2014 y.
6. Gadaev A.G. Propedevtika vnutrennix bolezney. Uchebnik. (na russkom yazыke).Toshkent – 2019
7. Filippova A.I. Sestrinskoe delo v terapii. Uchebnoe posobie. Meditsina. 2000 y.
8. Pod redaksey D.F. Chebatoreva. Geriatriya, Uchebnoe posobie. Moskva 1990
9. Gerontological Nursing Virginia Burggraf, Richard Barry

Internet saytlari

1. www.sestra.ru
2. <http://www.bmn.com/>
3. www.med.uz
4. www.lex.uz
5. www.medical.ru
6. www.minzdrav.uz
7. www.tma.uz
8. www.tashpmi.uz
9. www.ziyonet.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI**

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIM DARAJASI

40910206 -“Tibbiy brigada hamshirasi” mutaxassisligi

TERAPIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN

O'QUV DASTURI

Kvalifikatsiya **1.Patronaj hamshirasi**

2.Amaliyotchi hamshira

O`quv rejadagi tartib raqami: **2.07**

Ajratilgan auditoriya soat: **144**

Toshkent 2024 yil

O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti instituti Sog'liqni saqlash yo'nalishlari i O'quv metodik birlashmasining 2024-yil 25-iyuldaggi 3-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 22-iyuldaggi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2024-yil 1- avgustdagi 277-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

Alijonova M.O.

Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Xamrayeva G.X.

Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi

1. O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar

O'quv dasturining nomi	Terapiyada hamshiralik ishi
Ajratilgan Soat	144
Mavzular soni	12
Dasturning maqsadi	<ul style="list-style-type: none"> • terapevtik kasalliklarning asosiy xususiyatlari tushuntirish; • sub'ektiv, ob'ektiv, instrumental va laborator tekshirish usullarini o'rgatish; - shifokorgacha bo'lgan shoshilinch yordam choralarini tushuntirish; • terapevtik kasalliklarda hamshiralik parvarishini amalga oshiradigan hamshirani shakllantirish; - kasalliklarning oldini olish choralarini, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni o'rgatish.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<ul style="list-style-type: none"> - terapevtik kasalliklarning asosiy xususiyatlari, tekshirish usullari, hamshiralik parvarishi hamda shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.
Bilim	<ul style="list-style-type: none"> - terapevtik kasalliklar fanining rivojlanish tarixi va xususiyatlari; - bemorlarni sub'ektiv, ob'ektiv, tibbiy asbob uskunalar va laborator tekshirish usullari; - nafas olish, yurak qon-tomir, ovqat hazm qilish, buyrak va siydiq ajratish a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi; - qon va qon yaratish a'zolari, ichki sekresiya bezlari va modda almashinuvi kasalliklarida hamshiralik ishi; - allergik holatlarda, suyak-mushak va biriktiruvchi to'qima kasalliklarida hamshiralik ishi; - gipo vaavitaminozlar.
Ko'nikma	<ul style="list-style-type: none"> - ambulator karta va kasallik tarixining passport qismini to'ldirish; - bemorning shikoyatini so'rab-surishtirishni, bemorning shikoyati hamda tashqi ko'rinishi asosida holatini baholash; - bemorni palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya qilish orqali me'yoriy va patologiyadagi o'zgarishlarini aniqlash; - tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishda patronaj hamshirasining vazifasi; - rentgenologik, endoskopik va ultratovush diagnostikasiga bemorni tayyorlash; - pikfloumetriya o'tkazish; - pulsoksimetriya o'tkazish; - spirometriya o'tkazish; - EKG tekshiruviga bemor va apparatni tayyorlash; - Xolter EKG monitoringi tekshiruvini o'tkazish - barmoqdan va venadan qon olish texnikasi; - umumiy siydiq tahlili, Zimnitskiy, Nechiporenko sinamalariga siydiq yig'ish; - najasni umumiyy, bakteriologik, yashirin qonni aniqlash uchun yig'ish; - balg'amni umumiyy, bakteriologik, sil tayoqchalarini aniqlash uchun yig'ish va tufdonni dezinfeksiya qilish; - me'da va 12-barmoq ichak shirasini olish uchun kerakli ashylarni va bemorni tayyorlash; - pulsni sanash, NOT, A/B, tana haroratini o'lhash, harorat varag'iga belgilash; - plevra punksiyasi uchun kerakli ashylarni, bemorni tayyorlash va unda ishtirok etish; - kislород manbaidan kislород yostig'ini to'ldirish, bemorga namlangan kislород berish;

- oddiy fizioterapevtik muolajalarni bajarish (ingalyatsiya o'tkazish, xantal qo'yish, isituvchi kompress, muzli xaltacha, grelka va davolovchi vannalarni tayyorlash);
- cho'ntak ingalyatorlaridan to'g'ri foydalanish;
- balg'am yaxshi ajralishi uchun drenaj holatini yaratib berish;
- antibiotiklarni eritish, dozasini hisoblash va m/o in'eksiya qilish;
- girudoterapiya o'tkazish;
- bitsillinni eritish va yuborish;
- og'ir yotgan bemorlarning og'iz bo'shlig'ini parvarish qilish va ovqatlantirish;
- og'ir yotgan bemorlarning teri qoplamlarini parvarish qilish va yotoq yaralarni oldini olish;
- bemorlarni kiyim va oqliklarini almashtirish;
- bemorlarni transportirovka qilish;
- me'dani yuvish, huqna qo'yish, gaz chiqaruvchi naycha qo'yish;
- me'dani fraksion zondlash, duodenal zondlash;
- zondsiz tyubaj o'tkazish;
- bemor qusganda shoshilinch yordam ko'rsatish;
- parhez bilan davolash usullari;
- dori moddalarni parenteral yuborish;
- bemor vaznnini o'lchash;
- sutkalik diurezni aniqlash;
- kateterlash uchun kerakli ashyolarni tayyorlash va universal mulyajda qovuqqa kateter qo'yish;
- barmoqdan qon olishni, qon surtmasini tayyorlash;
- gemoglobin miqdorini aniqlash;
- eritrotsitlarning cho'kish tezligini aniqlash;
- qonning ivuvchanligi va oquvchanligini aniqlash;
- qon guruhini aniqlash;
- qon quyish uchun sistemanli tayyorlashni va qon quyishda ishtirok etish;
- suyak ko'migini punksiya qilish uchun kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlash;
- qon va qon o'rnini bosuvchi dori moddalarini organizmga yuborish usullari;
- qonning normadagi va patologiyadagi tahlilini o'qiy olish;
- qalqonsimon bezni palpatsiya qilish;
- siyidikdagi qand miqdorini aniqlash uchun siyidik yig'ish;
- siyidikdagi qandni, asetonni laboratoriyyada va ekspress usulda aniqlash;
- glyukometr yordamida qondagi qandni aniqlashni va bemorga o'rgatish;
- insulinning dozasini hisoblash, flakondan shprisga tortish va bemorga o'z-o'ziga insulin in'eksiya qilishni o'rgatish;
- bemorlarga kelgan oziq – ovqatlarni nazorat qilish;
- allergologik sinamalarni qo'yish(t\o, til osti, applikatsiyali, skarifikatsiyali);
- ortopedik jihzlarni qo'llashda bemorga yordam berish;
- bemorga qulay vaziyat yaratish uchun funksional krovatdan foydalanish;
- qon tuflash, o'pkadan qon ketish, bo'g'ilish xuruji, gipertonik kriz, stenokardiya xuruji, o'tkir miokard infarkti, kardiogen shok, hushdan ketish, kollaps, yurak astmasi, o'pka shishi, me'da, ichakdan qon ketish, jigar komasi, o't sanchig'i, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, uremik koma, buyrak sanchig'i, gipertermiya, gipergrlikemik va gipoglikemik komalar, Kvinke shishi, o'tkir eshakemi, anafilaktik shokda shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish;
- anafilaktik shokka qarshi dorilar yig'indisi bilan tanishish.
- vaziyatli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish.

O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fan nomi	Anatomiya, Fiziologiya Patologiya Lotin tili va tibbiy terminologiya Farmakologiya va retseptura asoslari Hamshiralik ishi
O'qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta'lif; A-amaliy ta'lif;
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhg'a tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko'nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2.O'quv dasturi mazmuni

No	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Jami soat	Mustaqillik ta'im
1	Terapevtik kasalliklar fanining rivojlanish tarixi va xususiyatlari.	<p>Terapevtik kasalliklar fanining rivojlanish tarixi. Terapevtik kasalliklar fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan jahon va sharq olimlardan Gippokrat, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar Roziyning xizmatlari. O'zbekiston olimlari haqida ma'lumot.</p> <p>Terapevtik kasalliklar etiologiyasi, simptom, sindrom, klinikasi, tashxis va uning turlari, residiv, remissiya, immunitet, allergiya, profilaktika haqida tushuncha. Shoshilinch yordam ko'rsatish, davolash usullari va sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishda patronaj hamshiraning vazifasi.</p> <p>Terapevtik kasalliklarda bemorlarni o'qitish va muammolarni yechish jarayoni.</p>	10	2.N	1
2	Bemorlarni sub'ektiv va ob'ektiv tekshirish usullari	<p>Bemorlarni sub'ektiv tekshirish usullarining ahamiyati, o'tkazish tartibi. Pasport ma'lumoti, bemorlarning shikoyatlarini so'rab-surishtirish, kasallikning rivojlanish tarixi va bemorlarni hayot tarixini so'rab-surishtirish.</p> <p>Bemorlarni ob'ektiv tekshirish usulini asosiy qismlarining ahamiyati, o'tkazish tartibi. Ko'zdan kechirish, palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya tartibi va mohiyati.</p> <p>Mazkur mashg'ulot klinika oldi amaliyat xonasi, poliklinika yoki kasalxonalarda tashkil etilgan o'quv amaliyat xonalarda o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Kasalxona va oilaviy poliklinikalarning tibbiy hujjatlari (ambulator karta, kasallik tarixi, hamshira kartasi) bilan o'quvchilarni tanishtirish va</p>	19	2.N	3

		<p>ularni rasmiylashtirishda amaliyot hamshirasining o'rni.</p> <p>Bemorni tekshirish usullari. Sub'ektiv tekshirish(so'rab surishtirish): pasport qismi, bemor shikoyatlari, kasallik tarixi, hayot tarixining ahamiyati va o'tkazish qoidalari.</p> <p>Ob'ektiv tekshirish. Bemorni ko'zdan kechirish (umumiy ahvoli, vaziyati, es hushi, teri va shilliq pardalarning rangi, toshmalar, shishlar, bo'g'im, muskul, suyaklardagi o'zgarishlar, gavda tuzilishi).</p> <p>Palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya mazmuni, ahamiyati, o'tkazish qoidasi, ketma-ketligi, hamda a'zolarning moyoriy va patologiyadagi o'zgarishlarini aniqlash.</p> <p>Sub'ektiv va ob'ektiv tekshirish usullarini o'zaro o'quvchilar orasida mashq qilish.</p> <p>Bemorning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va harorat varaqasiga belgilash. Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishda amaliyot hamshirasining vazifasi. Bemorlarni tekshirishda etika, deontologiya, aseptika, antiseptika qoidalariga amal qilish</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>		4.A	
3	Bemorlarni tibbiy asbob uskunalar bilan tekshirish usullari	<p>Tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirish usullarini (rentgenologik, endoskopik, UTD, EKG, xolter EKG, veloergometriya, FKG, ExoKG, DoplerKG, pikfluometriya, MSKT kompyuter tomografiya), elastometriya (jigarni fibroskanerlash), spirometriya, pulsoksimetriya va ularni terapevtik kasalliklarga tashxis qo'yishdagi ahamiyati.</p> <p>Tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirishga ko'rsatma va mone'liliklar.</p> <p>Asbob-uskunalar bilan tekshirishga bemorlarni tayyorlashda amaliyot hamshirasining vazifasi. Kontrast moddalar haqida ma'lumot.</p> <p>O'quvchilarni rentgenologik, funksional bo'limlari bilan tanishtirish. Bu bo'limlarda ishlash qoidasi va texnika xavfsizligi haqida ma'lumot berish.</p> <p>Maxsus asbob va diagnostik ashyolar bilan tanishish. Bemorni instrumental rentgenologik, endoskopik, UTD va skanerlash tekshiruvlariga tayyorlashda tibbiyot hamshirasining vazifasi. Bemorlarni tibbiy asbob uskunalar bilan tekshirishda ishtirok etish. Konrast moddalarni tayyorlash va ularni bemorlarda qo'llashda ishtirok etish.</p> <p>O'quvchilarni EKG xonasi bilan tanishtirish. Bu bo'limlarda ishlash qoidasi va texnika xavfsizligi haqida ma'lumot berish.</p> <p>Bemorni EKG tekshiruvlariga tayyorlashda tibbiyot hamshirasi ning vazifasi.</p> <p>Bemorlarni EKG qilish va ularni sharhlash. Tibbiy hujjat va yo'llanmalarni rasmiylashtirishda tibbiyot hamshirasining vazifasi</p> <p>Bemorlarni tekshirishda etika, deontologiya, aseptika, antiseptika qoidalariga amal qilish</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni Saqlash</p>	30	2.N	5

		Vazirligining amaldagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.			
4.	Bemorlarni laborator tekshirish usullari	<p>Klinik va biokimyo laboratoriyaning tuzilishi. Texnika xavfsizligi qoidalari. Laboratoriya tekshirish usullariga bemorlarni tayyorlash. Qon, siydiq, balg'amni tekshirish ning diagnostik ahamiyati. Qon, siydiq, balg'am, me'da shirasi, najasning me'yoriy va patologiya dagi tahlilini ajratishni o'rgatish.</p> <p>O'quvchilarni laboratoriya xonasi bilan tanishtirish. Laborator tekshirish uchun kerakli ashylar va bemorlarni tayyorlashda tibbiyot hamshirasining vazifasi. Laboratoriya tekshiruviga yo'llanmani to'ldirish va barcha ko'rsatkichlarni tahlil qilish.</p> <p>Barmoqdan qon olish va biokimyoviy tekshiruv uchun bemor venasidan qon olishni mulyajda o'rghanish.</p> <p>Siydikni umumiyligi tahlil, Nechiporenko, Zimnitskiy sinamalariga yig'ish. Najasni umumiyligi tekshirish, yashirin qonni aniqlashga yig'ish. Balg'amni umumiyligi, bakteriologik tekshirishga yig'ish. Me'da shirasini olish uchun kerakli ashylarni va bemorni tayyorlash.</p>	30	2.N	5
5	Nafas olish a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi.	<p>Nafas olish a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</p> <p>O'tkir va surunkali bronxit kasalligining mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davosi, parvarishi, profilaktikasi.</p> <p>Bronxial astma kasalligi mohiyati, etiologiyasi, turlari, kasallik kelib chiqishida allergenlarning ahamiyati. Bronxial astma xurujining klinikasi, astmatik holat haqida tushuncha. Xuruj oralig'ida kasallikning kechishi, diagnostikasi. Bronxial astma xurujida bemorlarga shoshilinch yordam ko'rsatish, xuruj oralig'ida bemorlarni davolash, kuzatish va parvarish qilish. Kasallik profilaktikasi va unda allergologik markzlarning ahamiyati.</p> <p>Nafas yo'llari kasalliklari bilan og'igan bemorlarni namoyish va tahlil qilish. Bemorlar qabulida va ko'rígida ishtirot etish. Kasallik tarixini o'rghanish. Bemorning tashqi ko'rinishi va holatiga qarab baho berish. Sub'ektiv va asosiy ob'ektiv tekshirish usullarini o'tkazish.</p> <p>Oddiy fizioterapevtik muolajalarni bajarish (xantal, isituvchi kompress, ingalyatsiya o'tkazish). Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish.</p> <p>Zotiljam kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, asoratlari, davosi, profilaktikasi va parvarish qilish. Kollapsda shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Muolaja xonasida antibiotiklarni eritish, dozasini hisoblash va in'eksiyalarni mulyajda bajarish.</p> <p>O'pka absessi, quruq va ekssudativ plevritlarning etiologiyasi, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, asoratlari. Kasallikni davolash usullari, plevral punksiya va uning ahamiyati, xirurgik davoga ko'rsatmalar, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish.</p> <p>Balg'am yaxshi ajralishi uchun drenaj holatini yaratish.</p>	30	4.N	10

		<p>O'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash. Plevra punksiyasi uchun kerakli ashyo, bemorlarni tayyorlash va uni o'tkazishda amaliyot hamshirasining ishtiroki. O'pka sili etiologiyasi, kasallik manbai va yuqish yo'llari, turlari, klinik belgilari, diagnostikasi, kechishi, asoratlari, kompleks davosi, DOTS dasturining ahamiyati, xirurgik davoga ko'rsatmalar. Sil dispanserlarining tuzilishi va ishlash tartibi bilan tanishish. Oilaviy poliklinikadagi DOTS xonasi ishi bilan tanishish. DOTS xonasidagi tibbiy hujjatlarni to'ldirishda patronaj hamshirasining vazifasi.</p> <p>O'pka emfizemasi, o'pka raki mohiyati, sabablari, klinikasi, diagnostikasi, kechishi, onkodispanserlar haqida ma'lumot. Bemorlarni davolash, kuzatish va parvarish qilishda patronaj hamshirasining ishtiroki.</p> <p>Vaziyatli masala misolida nafas olish a'zolari kasallikkari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish</p> <p>Nafas olish a'zolari kasallikkarida uchraydigan kechiktirib bo'lmaydigan holatlar (bronxial astma xuruji, qon tuflash, o'pkadan qon ketish)da shoshilinch yordam ko'rsatishda hamshiraning o'rni.</p> <p>Bemorlarni sub'yektiv, ob'yektiv tekshirish va parvarishlashda etika, deontologiya, aseptika, antiseptika qoidalariga amal qilish</p> <p>Bronxial astma, surunkali bronxit, sil kasalligi, o'pka raki, surunkali zotiljam kasallikkarida bemorlarni statsionarda, ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining amalidagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>			
6	Yurak qon-tomir a'zolari kasallikkarida hamshiralik ishi.	<p>Yurak qon-tomir a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari. O'tkir revmatik isitma kasalligi mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, haqida ma'lumot. Kasallik kechishi, diagnostikasi, asorati, davosi, bemorlar parvarishi, spesifik profilaktikasi.</p> <p>Yurak qon tomir a'zolari kasallikkari bilan og'rigan bemorlarni namoyish va tahlil qilish. Bemorlar qabuli va ko'rigida ishtirok etish. Kasallik tarixini o'rganish. Bemorning shikoyatlari, tashqi ko'rinishi va holatiga qarab baho berish. Asosiy ob'ektiv tekshirish usullarini o'tkazish.</p> <p>Ateroskleroz,gipertoniya kasalligi (gipertenziv kasallik) mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, asoratlari, kasallik davosi, parhezning ahamiyati, bemorlarni kuzatish, parvarishlash va profilaktikasi. Gipertonik kriz klinikasi va krizda shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Muzli xaltacha, grelka, issiq oyoq vannalarini tayyorlash va qo'yish.</p> <p>Muolaja xonasida bioximik tahlil uchun venadan qon olish, qon chiqarish, in'eksiyalarni mustaqil bajarish.</p> <p>Zuluk qo'yish uchun kerakli ashylarni va bemorni tayyorlash.</p>	10	4.N	10

		<p>YuIK(yurak ishemik kasalliklari) mohiyati, etiologiyasi, turlari.</p> <p>Stenokardiya kasalligi mohiyati, sabablari, turlari, klinikasi, kechishi, stenokardiya xuruji klinikasi, davosi, parvarishi va profilaktikasi. Stenokardiya xurujida shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Miokard infarkti mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi. Miokard infarktining atipik turlari, ularning klinikasi, diagnostikasi. Kasallikning o'tkir davrida yuzaga keladigan asoratlar. Kardiogen shok klinikasi. O'tkir miokard infarktida shoshilinch yordam ko'rsatish. Kasallikni davolash va parvarish qilish xususiyatlari, profilaktikasi.</p> <p>Asbob uskunalar bilan tekshirish usullariga bemorlarni tayyorlash. Bemorlarda EKG olish va sharhlash. Yurak, ensa sohasiga xantal qo'yish.</p> <p>O'tkir qon tomir yetishmovchiligi: (hushdan ketish, kollaps, shok) mohiyati, sabablari, klinik belgilari, shoshilinch yordam choralarini, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish.</p> <p>O'tkir yurak yetishmovchiligi: yurak astmasi, o'pka shishi klinikasi, kechishi, shoshilinch yordam choralarini.</p> <p>Surunkali yurak yetishmovchiligi sabablari, klinik belgilari, kechishi, davosi, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish.</p> <p>Bemorlarga namlangan kislorod berish. Bemorlarni transportirovka qilish.</p> <p>Vaziyatli masala misolida yurak qon tomir a'zolari kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti harakatlarini namoyish qilish. Yurak qon tomir a'zolari kasalliklarida yuzaga keladigan kechiktirib bo'lmaydigan shoshilinch holatlar(gipertonik kriz, stenokardiya xuruji, o'tkir miokard infarkti, kardiogen shok, hushdan ketish, kollaps, yurak astmasi, o'pka shishi)da kasalxonagacha bo'lgan tez tibbiy yordamni ko'rsatish.</p> <p>Gipertoniya, stenokardiya, surunkali yurak yetishmovchiligi, o'tkir revmatik isitma, miokard infarkti kasalliklarida bemorlarni statsionarda, ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni Saqlash Vazirligining amalidagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>			
7	Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi.	<p>Ovqat hazm qilish a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</p> <p>O'tkir va surunkali gastritlarning mohiyati, turlari (oddiiy, korroziv, flegmonali), sabablari, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, davosi, profilaktikasi. Me'da va 12-barmoqli ichakning yara kasalligi etiologiyasi, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, asoratlarini, davolash usullari, parhezning ahamiyati, xirurgik davolashga ko'rsatmalar, profilaktikasi.</p> <p>Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni namoyish va tahlil etish. Kasallik tarixi bilan tanishish. Bemorlarning shikoyatlari va tashqi ko'rinishi asosida umumiy holatiga baho berish.</p> <p>Me'dani yuvish uchun kerakli ashyolarni tayyorlash va uni</p>	10	4N	10 16.A

		<p>mulyajda bajarish. Me'dani zondlash uchun kerakli ashyolarni tayyorlashni va unda qatnashish.</p> <p>Muzli xaltacha, grelka tayyorlash va qo'yish.</p> <p>Me'da raki mohiyati, xavfli omillar, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, asoratlari, davolash usullari, xirurgik davoga ko'rsatmalar. Bemorlarni kuzatish va parvarishlash va ularda deontologiyaga amal qilish.</p> <p>Bemorlarni rentgenoskopiya, irrigoskopiya, gastroskopiya, kolonoskopiya, rektomonoskopiya tayyorlash va ularda qatnashish. Bemor qusganda yordam ko'rsatish. Huqna qilish, gaz chiqaruvchi naychani qo'yish uchun kerakli ashyolarni, bemorni tayyorlash va muolajada qatnashish. Surunkali gepatit mohiyati, sabablari, turlari, kasallik asosiy belgilari. Sarqliq haqida tushuncha, turlari. Kasallik kechishi, diagnostikasi, asoratlari, davosi, parhezning ahamiyati, profilaktikasi.</p> <p>Asosiy ob'ektiv tekshiruvlarni olib borish (ko'zdan kechirish, qorin sohasini, jigarni Obrazsov-Srajesko usulida palpatsiya qilish va perkussiya, auskultatsiya)</p> <p>Laborator va asbob uskunali tekshiruvlarga bemorlarni tayyorlash.</p> <p>Jigar sirrozi mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, asoratlari (qon ketishlar, jigar komasi) va ularniing klinikasi, davolash usullari, parhezning ahamiyati, profilaktikasi. Jigar komasida shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Abdominal punksiyaga kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlash. O'tkir va surunkali xolesistit, o't tosh kasalligi mohiyati, turlari, sabablari, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, davosi, parhezning ahamiyati, profilaktikasi.</p> <p>Duodenal zondlash uchun kerakli ashyolarni tayyorlashni va unda qatnashish.</p> <p>Bemorlarda zondsiz tyubaj o'tkazish.</p> <p>Vaziyatli masala misolida ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish.</p> <p>Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar(me'da, ichakdan qon ketish, jigar komasi, o't sanchig'i)da bemorlarga shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>O'tkir va surunkali gastrit, me'da va 12 barmoqli ichak yara kasalligi, me'da raki, surunkali xolesistit, surunkali gepatit, jigar sirrozi kasalliklarida bemorlarni statsionarda, ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni Saqlash Vazirligining amalidagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>			
8	Buyrak va siydik ajratish a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi.	<p>Buyrak va siydik chiqarish a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</p> <p>Glomerulonefrit pielonefrit kasalligining mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, asoratlari, davosi, parhezning ahamiyati, oldini olish.</p> <p>Sub'ektiv va asosiy ob'ektiv tekshiruvlarni bemorlarda</p>	8	2.N	9

		<p>o'tkazish va ular asosida bemorlar holatiga baho berish. Badandagi shishlarni aniqlash. Pasternaskiy simptomiga tekshirish.</p> <p>Bemorlarni UTD, endoskopik va rentgenologik tekshiruvlarga tayyorlash.</p> <p>Umumiy tahlil uchun, Zimniskiy sinamasi uchun siyidik yig'ish uchun kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlash. Nechiporenko, Addis-Kakovskiy, Ambyurje sinamalariga siyidik yig'ish uchun kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlash. Siyidik tahlili uchun laboratoriya yo'llanma yozish.</p> <p>Buyrak-tosh kasalligi mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, buyrak sanchig'i, kechishi, davolash usullari, buyrak sanchig'ida shoshilinch yordam ko'rsatish, xuruj oralig'ida bemorlarni davolash. Kasallikning oldini olish. O'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligining sabablari, klinik belgilari, kechishi, asoratlari, uremiya oldi holati va uremik koma klinikasi, kechishi, davolash usullari, sun'iy buyrak, gemodializ haqida tushuncha. O'tkir buyrak yetishmovchiligi, uremik komada shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Sutkalik diurezni o'lhash. Qovuqni kateterlash uchun kerakli ashyolarni va bemorni tayyorlash va ushbu muolaja o'tkazishda qatnashish. Grelka va issiq vanna tayyorlash. Siyidik tutolmaganda bemorlarni parvarish qilishda amaliyot hamshiraning roli. Bemorlarga kelgan oziq ovqatlarni nazorat qilish.</p> <p>Vaziyatli masala misolida buyrak va siyidik ajratish a'zolari kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar(uremik koma, buyrak sanchig'i)da shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Piyelonefrit, glomerulonefrit, buyrak tosh kasalligi, surunkali buyrak yetishmovchiligi kasalliklarida bemorlarni statsionarda va ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining amalidagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>	16.A		
9	Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi.	<p>Qon va qon yaratish a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</p> <p>Kamqonlik mohiyati, tarqalganligi, etiologiyasi, asosiy guruhlari.</p> <p>Postgemorragik, temir tanqisligi, vitamin V₁₂ tanqisligi (pernitsioz) va gemolitik kamqonlik sabablari, klinik belgilari, turlari, qondagi o'zgarishlar, davosi, profilaktikasi.</p> <p>Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni namoyish va tahlil etish. Kasallik tarixi, qon tahlili bilan tanishish. Bemorlar qabuli va ko'rigida ishtirok etish.</p> <p>Bemorlarda sub'ektiv va asosiy ob'ektiv tekshiruv usullarini o'tkazish. Qon tahlillari uchun kerakli ashyolarni va bemorlarni tayyorlash.</p> <p>Qon tahlili uchun barmoqdan qon olish, qondagi gemoglobinni, EChT ni aniqlash, qon surtmasini tayyorlash,</p>	20	2.N	7

		<p>laboratoriya yo'llanma yozish. Leykozlar mohiyati, klinik turlari. O'tkir va surunkali leykozning klinik belgilari, kechishi, asoratlari, qondagi o'zgarishlar, asoratlari, davolash usullari, bemorlar parvarishi, deontologiyaga amal qilish.</p> <p>Qon guruhini standart zardoblar yordamida aniqlash. Qonning ivuvchanligini va oquvchanligini aniqlash.</p> <p>Bemorlarga qon quyish uchun kerakli ashyolarni tayyorlash va gemotransfuziyada ishtirok etish.</p> <p>Suyak ko'migini punksiya qilish uchun bemorni va kerakli ashyolarni tayyorlash. Og'ir yotgan bemorlarning og'iz bo'shlig'ini, teri qoplamlarini parvarish qilish. Bemorlarni kuzatish va parvarish qilishda deontologiya qoidalariga amal qilish.</p> <p>Gemorragik diatezlar haqida tushuncha, kasallik turlari (gemofiliya, trombotsitopenik purpura, gemorragik vaskulit), klinikasi, kechishi, qondagi o'zgarishlar, davolash usullari va profilaktikasida patronaj hamshiralaringning roli. Vaziyatli masala misolida qon va qon yaratish a'zolari kasallikkilari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish.</p> <p>Kamqonliklar, leykozlar, gemorragik diatezlarda bemorlarni statsionarda va ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>		12.A	
10	Ichki sekresiya bezlari va modda almashinuvi kasalliklarida hamshiralik ishi.	<p>Ichki sekresiya bezlarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</p> <p>Qalqonsimon bez kasallikkilari. Diffuz toksik buqoq (Bazedov kasalligi) kasalligi mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, qalqonsimon bez kattalashuvining darajalari, kechishi, asoratlari, diagnostikasi, davolash usullari, oldini olish. Tireotoksik kriz klinikasi va unda shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Gipoterioz (miksedema) va endemik buqoq kasalligi mohiyati, sabablari, klinik belgilari, diagnostikasi, kechishi, asorati, davosi va oldini olish choralar.</p> <p>Ichki sekresiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklarini bilan og'rigan bemorlarni namoyish va tahlil etish.</p> <p>Sub'ektiv va asosiy ob'ektiv tekshiruv usullarini bemorlarda o'tkazish. Bemorlarni laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash.</p> <p>Tireotoksik krizda shoshilinch yordam ko'rsatish. Qandli diabet kasalligi mohiyati, sabablari, klinik turlari (I tip va II tip), klinik belgilari, kechishi, asoratlari, davolash usullari, parhezning ahamiyati, bemorlar parvarishi, oldini olishda patronaj hamshirasining roli.</p> <p>Qandli diabet asoratlari (giperlikemik va gipoglikemik komalar) klinikasi va ularda shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Bemorlar parvarishida ishtirok etish: og'iz bo'shlig'ini, teri qoplamlarini parvarishlash. O'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalarini o'rgatish: dietoterapiya (9-parhez stoliga</p>	21	2.N	7

		<p>taomnoma tuzish)ni.</p> <p>Glyukometr yordamida qondagi qandni aniqlashni va bemorga o'rgatish. Siydkdag'i qandni aniqlash uchun kerakli ashyolarni tayyorlash va bemorga tushuntirish.</p> <p>Muolaja xonasida ishslash, insulin dozasini hisoblash, flakondan shprisga tortish va bemorlarga in'eksiya qilish. Bemorlarga o'z-o'ziga insulin yuborishni o'rgatish.</p> <p>Vaziyatli masala misolida ichki sekretsiya bezlari va modda almashinuvি kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish.</p> <p>Qandli diabet, Bazedov kasalliklarida bemorlarni statsionarda, ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'lqnqi Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>			
11	Allergik holatlarda hamshiralik ishi	<p>Allergiya, allergen, antitelo, allergik reaksiyalar haqida ma'lumot. Anafilaktik shok, Kvinke shishi, o'tkir eshakemi sabablari, klinikasi, kechishi, tez yordam ko'rsatish, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Parhez bilan davolashning ahamiyati. Dori-darmonlar bilan davolash va giposensibilizatsion terapiya. Oldini olishda tibbiyot hamshirasining vazifalari. Allergologik markazlarning ahamiyati.</p> <p>O'tkir allergozlar bilan og'rigan bemorlarni namoyish va tahlil qilish. Bemorlarda asosiy ob'ektiv tekshiruvlarni o'tkazish. Bemorlar qabuli va ko'rigida ishtirok etish. Allergologik sinamalarga bemor va kerakli ashyolarni tayyorlash. Allergologik sinamalar qo'yishda ishtirok etish. Kvinke shishi, anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko'rsatish. Shokka qarshi dorilar yig'indisi bilan tanishish.</p> <p>Vaziyatli masala misolida allergik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish.</p> <p>Allergik kasalliklarida bemorlarni statsionarda va ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'lqnqi Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari to'g'risida qisqacha ma'lumot berish</p>	9	2.N 4.A	3
12	Suyak – mushak va biriktiruvchi to'qima kasalliklarida hamshiralik ishi	<p>Suyak-mushak va biriktiruvchi to'qima a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</p> <p>Bo'g'im kasalliklariga tashxis qo'yishda rengenologik tekshiruvning ahamiyati.</p> <p>Revmatoid artrit kasalligining mohiyati, etiologiyasi, klinikasi, kechishi, diagnostikasi, davolash usullari, bemorlarni kuzatish, parvarish qilish, oldini olish choralari.</p> <p>Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarni fizikal tekshirish. Bo'g'imir faoliyatini baholash. Bemorlarga o'z – o'zini parvarish qilish ko'nikmalarini o'rgatish: harakat aktivligini bir maromda ushlab turish, qo'lтиq tayoq va ortopedik jihozlarni qo'llash bo'yicha qo'llanmalar.</p>	6	2N 2A	2

		<p>Bemorga qulay vaziyat yaratish uchun funksional krovatdan foydalanish. Bemorlarni ovqatlantirish, terisini parvarish qilish, yotoq yaralarini oldini olish. Bemorlarning kiyimlarini va oqliklarini almashtirish.</p> <p>Vaziyatli masala misolida revmatoid artrit kasalligi bilan og'igan bemorlarda hamshiralik jarayonini yuritish. Hamshiraning hatti-harakatlarini namoyish qilish.</p> <p>Suyak – mushak va biriktiruvchi to'qima kasalliklarida bemorlarni statsionarda va ambulator sharoitda parvarishlash.</p> <p>O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>			
		Jami:	216	144	72

3.O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muofiq bo'lishi lozim.

4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ichki kasalliklar propedevtikasi. GadaevA.G.; Karimov M.Sh.. "Muhamarrir"nashriyoti. 2012
2. Ichki kasalliklar. Gadaev A.G. T: Turon Zamin Ziyo, 2014
3. Ziyayeva M.F. "Terapiya" Toshkent, "Ilm Ziyo" nashriyoti 2014yil.
4. Vnutrennie bolezni po Tinsli R.Xarrisonu –Perevod s angliyskogo, 2011
5. M.F. Ziyayeva "Terapiya" Toshkent "Ilm ziyo"2019
6. Ziyayeva M.F. Xodjasheva M.D."Kattalarda (terapevtik kasalliklar va klinik tekshiruvlar)da hamshiralik parvarishi" "Voris- nashriyot" Toshkent 2017y
7. Ziyayeva M.F. Xodjasheva M.D. "Sestrinskiy uxod za vzroslyimi (terapeuticheskie zabolеванием i klinicheskie obsledovaniya)" Tashkent, "Ilm Ziyo" nashriyoti, 2015 god.
8. Ermetova D.I. "Terapiya" Tashkent, "Ilm Ziyo" nashriyoti , 2015 yil.
9. ZiyayevaM.F. XodjashevaM.D. "Kattalarda hamshiralik parvarishi" 1-qism, "Voris-nashriyot" Toshkent 2014yil.
10. Smoleva E.V. "Sestrinskoe delo v terapii" Rostov- na –Donu, "Feniks", 2007god.
- 11.Haydarov G'.O. "Ichki kasalliklar" Toshkent, "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti, 2002 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Kalanova I.M. "Kattalarda hamshiralik parvarishi amaliyoti" o'quv - uslubiy qo'llanma, Samarkand, 2008yil.
2. Vnutrennie bolezni, tom 1 Muxin N.A. M.GEOTAR - Media,2009
3. Vnutrennie bolezni, tom 2 Muxin N.A. M. GEOTAR - Media,2009
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari
5. Internet saytlari:
 1. www.med.uz. www.medical.ru.
 2. www.minzdrav.uz.
 3. www.tma.uz.

4. www.tashpmi.uz.
5. www.medbook.ru
6. www.medicum.ru
7. www.medtext.ru
8. www.medkniga.ru
9. www.cardioline.ru
10. www:<http://buks.ru/book>;
11. www.ziyonet.uz;
12. www.lex.uz; www.cardiosite.ru; www.cardiologia.ru;
13. www.bilim.uz; www.gov.uz;

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI**

**O'RTA PROFESSIONAL TA'LIM DARAJASI
40910206-“Tibbiy brigade hamshirasi” mutaxassisligi**

**BOLALAR KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI
O'QUV DASTURI**

Kvalifikatsiya **1.Patronaj hamshirasi**

2.Amaliyotchi hamshira

O`quv rejadagi tartib raqami: **2.08**

Ajratilgan auditoriya soat: **144**

Toshkent 2024 yil

O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti instituti Sog'liqni saqlash yo'nalishlari i O'quv metodik birlashmasining 2024-yil 25-iyuldaggi 3-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 22-iyuldaggi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2024-yil 1- avgustdagi 277-sod buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

Israilova X.Yu.

Sergeli Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi

Taqrizchi:

Gafurova Sh.Dj.

Sergeli Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

1.O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar

O'quv dasturining nomi	Bolalar kasalliklarida hamshiralik ishi
Ajratilgan Soat	144
Mavzular soni	15
Dasturning maqsadi	<ul style="list-style-type: none"> -sog'lom bola organizmi xususiyatlarini tushuntirish; -bemor bolalarni bevosita va asbob-uskunalar yordamida tekshirish va nazorat yuritish usullarini o'rgatish; - uy sharoitida bemor bolalarni parvarishini amalga oshirish, kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini o'rgatish;
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<ul style="list-style-type: none"> - sog'lom va bemor bolalar xususiyatlari, nazorat va maqsadli tekshiruv usullari, bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishini amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.
Bilim	<ul style="list-style-type: none"> - pediatriyaning rivojlanish tarixi. - bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi. - muddatiga yetib va chala tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish kilish xususiyatlari. - oilaviy poliklinika, QVP va stasionardagi bolalarga hamshiralik parvarishining xususiyatlari. - bolalarni ovqatltirish. - bolalik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi.
Ko'nikma	<ul style="list-style-type: none"> - bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi; - bolalarni laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash hamda material yig'ish; - chaqaloqlarni birlamchi va kundalik parvarishini amalga oshirish; - bemor bolalarni davolash va hamshiralik parvarishini amalga oshirish; - sog'lom va bemor bolalarni parvarishini amalga oshirish; - bolalarni tabiiy ovqatltirish va qo'shimcha ovqatlar tayyorlash; - onalarga sog'lom va bemor bolalar parvarishini amalga oshirish bo'yicha maslahatlar berish; - asfiksiya, laringospazm, soxta krup, bronxial astma xurujida, kollaps, hushdan ketish, burundan qon ketganda, gipo-giperglykemik komada, gipertoniya, talvasa, anafilaktik shok, oftob va sovuq urganda, ilon chaqqanda, suvgaga cho'kkanda, elektr jarohatida shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish; - faoliyati doirasida tibbiy hujjalarni rasmiylashtirish; - muammoli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritish.
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fan nomi	<ul style="list-style-type: none"> - Anatomiya, fiziologiya va patologiya - Terapiyada hamshiralik ishi - Xirurgiya va reanimasiya asoslari - Hamshiralik ishi asoslari - Jamoada hamshiralik ishi - Qariyalarda parvarish xususiyatlari - Nutrisiologiya diyetologiya asoslari bilan - Tibbiy reabilitatsiya
O'qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta'lim; A-amaliy ta'lim;

Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhg'a tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob,munozara,test, muammoli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko'nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2.O'quv dasturi mazmuni

No	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Jami soat	Mustaqil ta'im
1	Sog'lom bola. Pediatriyaning rivojlanish tarixi. Bolalarning jismoniy rivojlanish monitoringi.	Pediatriyaning rivojlanish tarixi va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar. Bolalarning o'sish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.Bola rivojlanishining qonuniyatları, bolalik davrlari, ona qornida rivojlanish (antenatal) davri, ona qornidan tashqaridagi (postnatal) rivojlanish davri. 2 yoshgacha va 2 yoshdan katta bo'lgan davrda tana vaznini o'lchash; bolaning bo'y uzunligini o'lchash; Bosh aylanasini o'lchash va ko'krak aylanasini o'lchash.Bolaning jinsiga qarab baxolash.	6	4 A	3
2.	Bola organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari.	Teri, suyak-mushak tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari.Asab va sezgi a'zolarinig anatomik – fiziologik xususiyatlari. Endokrin tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari. Nafas olish, yurak-qon tomir, qon hosil qilish va limfa tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari.Ovqat hazm qilish, buyrak va siyidik chiqarish tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari Bolalar uchun o'sish jadvallarini to'ldirish (YuNICYeF). Teri elastikligi, teri osti yog' qatlami qalinligini aniqlash; teri va shilliq qavatlarini parvarishlash; katta liqaldoq o'lchamini o'lchash; endokrin tizimining holatini baholash; nafas olish sonini hisoblash; puls tezligini hisoblash; AB ni o'lchash; periferik limfa tugunlarini paypaslash va baholashni; og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirish; qorinni paypaslash.	22	4 N	

3.	Muddatiga yetib tug'ilgan va chala tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish kilish xususiyatlari.	Muddatiga yetib tug'ilgan chaqaloqlarning ta'rifi va belgilari. Chaqaloqlardagi fiziologik holatlar. Chaqaloqlarda o'tkaziladigan emlashlar.Tug'ruqdan oldingi va chaqaloqlar birinchi patronajini maqsad va mazmuni.Samarali perinatal parvarishni tashkil etish (YuNISEF).Chala tug'ilgan chaqaloq belgilari va xususiyatlari. Chala tug'ilish sabablari va darajalari. Yuqori nafas yo'llarini shilimshiqlardan tozalash; kindik qoldig'ini parvarishlash; gonoblenoreya profilaktikasi; teri va shilliq qavatlarni tozalash va parvarishlash; chaqaloqlar antropometriyasini o'tkazish; chaqaloqlarga gigiyenik vanna o'tkazish; muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlar holatiga baho berish;muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarni zond orqali ovqatlantirish;muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarni kuvez va grelkalar yordamida isitish; namlangan kislород berish.	16	4 N 8 A	4
4.	Oilaviy poliklinika, QVP va stasionardagi bolalarga hamshiralik parvarishining xususiyatlari.	Oilaviy poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va stasionarlarning tuzilishi va ahamiyati, ularda hamshiralarning faoliyati bilan tanishish. Filtrda, vrachgacha bo'lgan xonadagi qabulda, sog'lom bola xonasida, pediatr xonasidagi hamshiralarning vazifalari bilan tanishish. Patronaj hamshiraning vazifalari bilan tanishish, patronaj xujjatlarini yuritishni o'rganish. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish.	16	4 A	4
5.	Bolalarni ovqatlantirish.	Go'daklarni emizish qoidalari, ona sutining afzalliklari. Ko'krak suti bilan boqishning 10 qoidasi. Sun'iy ovqatlantirish haqida tushuncha, ko'rsatmalar, qoidalari. 6 oydan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga taomnoma tuzish; emadigan bolaga kerak bo'lgan sut miqdorini hisoblash; nazorat o'Ichov o'tkazish; bir yoshgacha bo'lgan bolalarga beriladigan ayrim ovqatlarni tayyorlash; bir yoshdan katta bolalarga taomnoma tuzish.	16	2 N 10 A	4
6.	Bolalik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Chaqaloqlik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	Chaqaloqlar asfiksiysi, tug'ruq jarohatlari, chaqaloqlarning gemolitik kasalligi, teri, kindik kasalliklari, chaqaloqlar sepsisi: ta'rifi, sababi, belgilari, davosi, hamshiralik parvarishi. Sun'iy nafas oldirish va yurakni massaj qilish; muzli xaltachani qo'llash; ASFIXIYADA SHOSHILINCH YORDAM KO'RSATISH; namlangan kislород berish;	16	2 N 4 A	4

		yuqori nafas yo'llarini shilimshiqlardan tozalash; kindik kasalliklarida kindik yarasini parvarishlash; chaqaloqlar teri kasalliklarida teriga ishlov berish; gemolitik kasallikda chaqaloqqa fototerapiya o'tkazish.			
7.	Go'dak va kichik yoshdagi bolalar kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	Raxit, spazmofiliya, ekssudativ-kataral diatez: ta'rifi, sabablari, belgilari, asoratlari, tashhis qo'yish usullari, davolash tamoyillari, profilaktikasi, hamshiralik parvarishi.Laringospazmda yordam ko'rsatish qoidalarini o'rganish. kalsiy va fosfor miqdorini aniqlash uchun qonoliish.Konstitutsiya anomaliyalarida teri va shilliq qavatlarni parvarish qilish.	10	2 N 4 A	4
8.	Nafas olish a'zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.	Yuqori va pastki nafas yo'llari kasalliklari:o'tkir nazofaringit, angina, o'tkir laringit, bronxit, bronxial astma zotiljam ta'rifi, sabablari, belgilari, tashhis qo'yish usullari, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi. Nafas a'zolari holatini baholash: shikoyatlari, anamnez, umumiy ko'zdan kechirish, nafas olish sonini hisoblash, yo'tal xarakterini baholash. ko'z, burun va quloqqa dori tomizish;quloqni pilik bilan quritish; Quлоqqa isituvchi kompress qo'yish; Xavfsiz vositalar bilan tomoqni yumshatib,yo'talni yengillashtirish xantal qo'yish; Oyoqlarga vanna qilish; Soxta krup xurujida shoshilinch yordam ko'rsatish; Ahvoli og'ir bolaga o'rinda qulay sharoit yaratish va ovqatlantirish; oksiyogenoterapiya o'tkazish;	16	2 N 8 A	4
9.	Qon aylanish a'zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.	Tug'ma yurak nuqsonlari va revmatizm kasalligi sabablari, belgilari, tashxis qo'yish usullari, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi. Yurak tug'ma nuqsoni xamda revmatizm bilan og'rigan bemor bolani xolatini baholash: shikoyatlari, anamnez, umumiy ko'zdan kechirish, pulsni hisoblash. Ahvoli og'ir bolaga o'rinda qulay sharoit yaratish va ovqatlantirish; oksiyogenoterapiya o'tkazish;ichilgan va ajratilgan suyuqlikni xisoblash, bioximik analiz uchun qon olish.	15	2 N 8 A	5
10.	Ovqat xazm qilish a'zolari kasalliklari,og'iz shilliq qavati kasalliklari va gelmintozlarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi..	Gastrit va enterokolit: Pilostrenoza va pilorospazm, Stomatit, Gelminoz ta'rifi, sabablari, belgilari, tashxis qo'yish usullari, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi. qusganda va qorinda og'riq bo'lganda yordam	17	4 N	

		ko'rsatish; og'iz orqali regidratatsiya o'tkazish; og'ir suvsizlanishda venaga suyuqlikni yuborib davolash; gaz chiqaruvchi naycha qo'yish, stomatitlarda og'iz shilliq qavatini parvarish qilish; turli tekshiruvlar uchun najas olish; anal burmalaridan tekshiruvga qirma olish.		8A	5
11.	Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.	Temir tanqisligi anemiyasi va Gemorragik diatezlar - gemorragik vaskulit (Shenleyn-Genox kasalligi), trombositopenik purpura (Verlgof kasalligi), gemofiliya: kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, tashhis qo'yish usullari, asorati, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi. Bemor bolani ko'zdan kechirish, umumiyl qon tahlili natijalarini o'qish va baholash. Kun tartibi.Qon quyligandan so'ng bolani kuzatish,muzli xaltachadan foydalanish; burundan qon ketishida yordam ko'rsatish; laboratoriya yo'llanma to'ldirish; qon tahlili natijalarini o'qish va baholash.	15	2 N 8 A	5
12.	Endokrin kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.	Qandli diabet va endemik buqoq turlari ta'rifi, sabablari, belgilari, tashhis qo'yish usullari, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi.Bolalarda qandli diabetning kechish xususiyatlari. Qandli diabetning I tipi (insulinga bog'liq qandli diabet),qandli diabetning II tipi (insulinga bog'liq bo'limgan qandli diabet) haqida tushuncha. Endokrin tizim kasalliklarida bola holatiga baho berish: umumiyl ko'zdan kechirish, laboratoriya tekshiruvi natijalari bilan tanishish. Insulinoterapiya o'tkazish qoidalarini o'rganish, siydkni qandga tekshirish uchun yig'ish; insulin yuborish;	15	2 N 8A	5
13.	Buyrak va siydk chiqarish a'zolari kasalliklarida bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi	Buyrak va siydk chiqarish a'zolari kasalliklari - sistit, piyelonefrit, glomerulonefrit: ta'rifi, sababi, belgilari, tashhis qo'yish usullari, asorati, davolash tamoyillari, hamshiralik parvarishi. Buyrak va siydk chiqarish a'zolari kasalliklarida bola holatini baholash, shikoyatlari, umumiyl ko'zdan kechirish, laboratoriya tekshiruvi natijalari bilan tanishish.Kun tartibvaparhyeznio'rganish. peshobni umumiyl tahlil uchun yig'ish va baholash; peshobni Zimnitskiy bo'yicha sinama uchun yig'ish; peshobni Nicheporenko usuli bo'yicha tekshirish uchun yig'ish; arterial bosimni o'lhash va baholash; ichilgan va ajratilgan suyuqlikni hisobga olish;	15	2 N 8 A	5

14.	Kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi: o'tkir nafas va yurak-qon tomir yetishmovchiligi, gipertermiya va talvasa sindromi	Yuqori nafas yo'llarini tozalash va shilimshiq moddalarni so'rib olish, cho'ntak ingalyatoridan foydalanish,bemorlarga qulay vaziyat yaratish. sun'iy nafas oldirish va yurakni bilvosita massaj qilish. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash; chalg'ituvchi terapiya o'tkazish; cho'ntak ingalyatoridan foydalanish; bemorlarga qulay vaziyat yaratish.	14	8 A	6
15.	Tashqi muhit ta'sirotlari natijasida kelib chiqqan shoshilinch holatlarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi.	Oftob urishi elektr jarohatida va suvga cho'kkanda shikastlovchi omillar ta'sirini to'xtatish va zudlik bilan yordam ko'rsatish. Sovuq olganda issiqlik bilan ta'minlash. Infuzion terapiya o'tkazishda qatnashish.Anafilaktik shok va Kvinki shishida shoshilinch yordam ko'rsatish; bemorni tana haroratini o'lhash; talvasa sindromida dori-darmonlar qo'llash; juda yuqori isitma, talvasa sindromlarida shoshilinch yordam ko'rsatish. Me'dani yuvish va tozalovchi huqna o'tkazish; antirabik zardob bilan immunizatsiya o'tkazish; ilon chaqqanda zardob yuborish.	22	14 A	8
	Jami:		216	144	72

3.O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baxolanadi.

Baxolash usullari yozma, og'zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muofiq bulishi lozim.

4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. M.F.Ziyayeva. Z.O.Rizayeva. "Bolalarda xamshiralik parvarishi". Toshkent, "Fan va texnologiya" 2012 yil.
2. X.N Fayziyev. «Sestrinskiy uxod za detmi» Toshkent, «Ilm ziyo» nashriyoti, 2008 yil
- 3.K.S Inomov. «Pediatriyada xamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. "Bolalikdahamshiralik ishi" fanidan tibbiyat kollejlari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent 2016 y (YuNISEF).
2. "Xavfsiz immunizasiya" dasturi bo'yicha pedagoglar va tibbiyat xodimlari uchun qo'llanma. 2014 y (YuNISEF).
3. "5 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'sishi va rivojlanishi" O'quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
4. "Onalarga bolalarni oziqlantirish va parvarish bo'yicha tavsiyalar" O'quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
5. "Bola-sog'lom bo'lsin desangiz". O'quv kursi.Toshkent, 2013 y.
6. "Bemor bolalarni parvarish qilish va onalarga maslahat berish" Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2010 y.
7. "Qiz bolalarni o'sishini baholash va kuzatish hamda ko'rsatkichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish". O'quv kursi. Toshkent-2009 yil.(YuNISEF).
8. "O'g'il bolalarni o'sishini baholash va kuzatish hamda ko'rsatgichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish" O'quv kursi. Toshkent, 2009.

9. Birlamchi tibbiy sanitariya tizimidagi hamshiralalar ishining asosiy ko'nikmalari. O'quv qo'llanma. YuSAID ZdravPlyus loyihasi. Toshkent 2008.
10. Effektivnost patronajnyx vizitov medsester ADB YuSAID proyekt ZdravPlyus. Tashkent 2007 dekabr.
11. "Ko'krak suti bilan boqish bo'yicha maslahat olib borish o'quv kursi" o'qituvchilar uchun qo'llanma. Toshkent, 2007y
12. N.V.Yejoba «Pediatriya» Minsk, 2007 god.
13. V.D.Tulchinskaya «Sestrinskoye delo v pediatrii» Rostov-na Donu, «Feniks», 2003 yil.

Internet saytlari

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI**

**O'RTA PROFESSIONAL TA'LIM DARAJASI
40910206-“Tibbiy brigada hamshirasi” mutaxassisligi**

**AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI
O'QUV DASTURI**

Kvalifikatsiya	1.Patronaj hamshirasi
	2.Amaliyotchi hamshira
O`quv rejadagi tartib raqami:	2.09
Ajratilgan auditoriya soat:	72

Toshkent 2024 yil

O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti instituti Sog'liqni saqlash yo'nalishlari i O'quv metodik birlashmasining 2024-yil 25-iyuldag'i 3-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 22-iyuldag'i 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2024-yil 1- avgustdag'i 277-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

Ibragimova D.I.

Sergeli Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi katta o'qituvchisi -

Taqrizchilar:

G.M.Nig'matova

TTA "Akusherlik va ginekologiya" kafedrasи
dotsenti

1. O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar

O'quv dasturining nomi	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi
Ajratilgan Soat	72
Mavzular soni	10
Dasturning maqsadi	<ul style="list-style-type: none"> -“Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” moduli kishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, xotin-qizlar maslahatxonalarida va tug’ruq majmualarida ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislar tibbiyot hamshiralarini tayyorlash; -homilador, tug’uvchi va tukkan ayollarning fiziologik xususiyatlari, ularni parvarishi haqida bilimlarini shakllantirish; -xomilador, tug’uvchi va tuqqan ayollarning kasalliklarida patologik holatlarida yordam ko’rsatish;-hamshiralik parvarishi haqida tushuntirish; -ginekologik kasalliklar va bu kasalliklarda ayollarni parvarish qilish xususiyatlari haqida bilimlarni shakllantirish;-aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish haqidagi bilimlarini shakllantirish.
O’zlashtirish (o’qitish) Natijalari	<ul style="list-style-type: none"> -“Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” moduli homilador, tug’uvchi va tuqqan ayollarning fiziologik xususiyatlari, ularni parvarishi haqida muammolarini o’z vaqtida aniqlashni o’rgatish;-homilador, tug’uvchi va tuqqan ayollarning kasalliklarida patologik holatlarida yordam ko’rsatish, bemorlarga hamshiralik parvarishini amalga oshirishni o’rgatish;-ginekologik kasalliklar, va bu kasalliklarda ayollarni hamshiralik parvarishini o’rgatish;-aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish haqidagi bilimlarini o’rgatish;-yangi pedagogik texnologiyalar asosida mavzular bo'yicha bilim, malaka, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;-fanni boshqa tibbiyot fanlari uzviy bog'liklikka o’rgatish.
Bilim	<ul style="list-style-type: none"> -Akusherlik va ginekologiyada hamshiralikishi moduli to’g’risida tushuncha; -onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid davlat qonunlari va qarorlari; -akusherlik va ginekologik yordam ko’rsatish muassasalarida hamshiraning tutgan o’rni, vazifalari, ma’naviy qiyofasi;-epidemiyaga qarshi sanitار-gigienik tartiblar-ayolning tashqi va ichki jinsiy a’zolari tuzilishi va vazifalari; -ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlari;-homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi;-homiladorlik davrida hamshiralik parvarishi; -patologik homiladorlikda hamshiralik parvarish;-ekstragenital kasalliklarda hamshiralik parvarish;-tug’ruqda hamshiraning vazifalari va parvarishini; -chilla davri fiziologiyasi va patologiyasida hamshiralik parvarishini; -ginekologik bemorlarni tekshirish usullari;-reproduktiv yoshdagи ayollar salomatligini muhofaza qilishda hamshiralik parvarishini biladilar.
Ko’nikma	<ul style="list-style-type: none"> - ishlatiladigan asbob-anjomlarni zararsizlantirish;-dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo'llash;-biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillash;-tashqi jinsiy a’zolarni ko’zdan kechirish;-qin ko’zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayorlashni;-chanoqning tashqi

	o'Ichamlarini o'Ichash;-tashqi akusherlik amallarini o'tkazish;-homiladorlik bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishi havfi bo'lgan homiladorlarni aniqlash; -ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish;-ekstragenital kasallikkarda oqilona ovqatlanish bo'yicha tavsiyanomalar berish;-tug'ruqda tuguvchi ayolni parvarish kilish;-chilla davrida va chilla davrini patologik kechishida ayolni parvarishi;-ginekologik bemorlarni tekshirishda hamshiraning vazifalari;- reproduktiv yoshdagи ayollar salomatligini muhofaza qilishda bajariladigan ishlarda hamshiraning vazifalari xakida ko'nikmalarga ega bo'ladilar.
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fan nomi	Tibbiy terminologiya va lotin tiliAnatomiya, fiziologiya va patologiya Farmakologiya va retsepturaUmumiy gigiena va ekologiya ValeologiyaJamoada hamshiralik ishiPediatriyada hamshiralik ishiBolalar yukumli kasalliklari.Profilaktik emlash.Hamshiralik ishiTerapiyada hamshiralik ishiXirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi Teri va tanosil kasalliklarida hamshiralik ishiYuqumli kasalliklar
O'qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta'lim; A-amaliy ta'lim;
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhgа tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko'nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2. O'quv dasturi mazmuni

No	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiyluk yuklama	Jami soat	Mustaqil ta'lim
1.	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi faniga kirish. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalarida tibbiyot	Akusherlik va ginekologiya haqida tushuncha. Onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid davlat qonunlari va qarorlari xaqida malumot oladilar. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalarida hamshiraning tutgan o'rni, vazifalari, manaviy qiyofasi. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalarini ishining tashkil qilinishi tarkibi, xususiyatlari. Aseptika va antiseptika xaqida tushuncha. Epidemiyaga qarshi sanitarni-gigienik tartiblar	9 A4	N2 3	

	hamshirasining o'rni.	xaqida malumot oladilar. Qo'lni yuvish (zararsizlantirish). Ishlatiladigan asbob-anjomlarni zararsizlantirishni amalga oshiradilar. Bog'lov materiallarini tayyorlashni o'rganadilar. Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo'llash. Biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillashni amalga oshiradilar.			
2	Ayollar a'zolarining anatomiyasi fiziologiyasi.	Ayolning tashqi va ichki jinsiy a'zolari tuzilishi va vazifalari xaqida malumot oladilar. Qinning tozalik darajalari o'rganadilar. Mo'tadil (normal) hayz ko'rish davri. Ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlari xaqida malumot oladilar. Tashqi jinsiy a'zolarni ko'zdan kechirishni o'rganadilar. Qin ko'zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlashni o'rganadilar. O'quvchilar bemorlardan anamnez yig'adilar, o'qituvchi nazoratida bemorlarni umumiyl tekshirishda ishtirok etadilar, ko'rikka kelgan ayollarni tekshirish jarayoni o'tkazilayotgan vaqtda kuzatib turadilar. Ishlatilgan asbob anjomlarni zararsizlantirishda yordam beradilar. Chanoqning tashqi o'lchamlarini o'lchaydilar.	9	N2 A4	3
3.	Homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi. Homiladorlik Davridahamshiralik parvarishi	Urug'lanish va payvandlanish. Ayol organizmida homiladorlik tufayli ro'yberadigan fiziologik o'zgarishlar. Tashqi muhit zararli omillarining embrion va homilaga ta'siri, homila rivojlanishidagi kritik davrlari xaqida malumot oladilar. Homiladorlik belgilarini va muddatini aniqlash. Balog'atga yetmaganlarda homiladorlik muammolarini o'rganadalar. BTSYo muassasalarida homiladorlarga antenatal parvarishni ta'minlash xaqida malumot oladilar. "Onalar maktabi"da homiladorlar bilan shug'ullanish dasturini (BTSYo muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishi va tibbiy yordam ko'rsatish STANDARTI (YuNISEF)). Homilador va tuqqan ayol shaxsiy varaqasining pasport qismini to'ldirish. Almashuv varaqasining pasport qismini to'ldirish. Patronaj varaqasini	11	N2 A4	5

		to'ldirish. Homiladorlarni erta dispenser kuzatuviga olishni (homiladorlikning 12 chi haftasigacha) va uyda patronaj nazoratini muntazamligini ta'minlash.Homilador ayollarni tana vaznini va bo'yini o'lchashni o'rganadilar. Tashqi akusherlik amallarini o'tkazish. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar. Xomilaning yurak urishini tekshirish va uni baholash, qorin aylanasini o'lchash, bachadon tubi balandligini o'lchashni o'rganadalar. Gravidogramma rasmiylashtirish, xomilador ayollarda Solovev indeksini aniqlash. Homiladorlik va tug'ruq muddatini aniqlash. Sut bezlarini emizishga tayyorlashni amalga oshiradilar.		
4.	Patologik homiladorlikda hamshiralik ishi Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Ularda hamshiralik parvarishining xususiyatlari. .	Homiladorlik patologiyasining asosiy turlari. Homiladorlarni quşishini darajalari xaqida malumot oladilar. Homiladorlarni quşishi kelib chiqish sabablari, klinikasi va darajalarini o'rganadilar.Homiladorlik gipertenziyasi va gipertenziyiv sindromi haqida tushuncha xosil qiladilar. O'z vaqtida kasalxonaga yotqizmaslik oqibatlari xakida tushuncha oladilar. Homiladorlar gipertenziyasi kelib chiqish sabablari, klinikasi va darajalari. Homiladorlikni patologik kechishi bo'yicha xavfi yuqori guruhga ajratish va uning ahamiyati xaqida tushuncha oladilar. Homiladorlik patologiyalarida hamshiralik tashhisini o'z vaqtida aniqlashni amalga oshiradilar. Dispanser nazoratida bo'lgan homiladorlar hujjatlarini olib borish.Homiladorlar quşishining og'ir turida yordam berish.Gemodinamik varaqani to'lg'azish. Yashirin shish belgilarini aniqlashni o'rganadilar. Homilador ayollarni tana vaznini o'lchash.Homilador ayollarni arterial bosimini o'lchashni o'rganadilar.Bir soatlik siydik miqdorini aniqlash. Siydikda oqsilni aniqlash.Siydik qopini katetarizatsiya qilishni o'rganadillar. Eklampsiya hurujida shifokorgacha 1 yordam berish. Preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam ko'rsatishni amalga oshiradilar. Teri orasiga, mushak orasiga va vena ichiga dori moddalarini yuborishni	15 A8	N2 5

		<p>o'rganadilar.Suyuqlikni parenteral yuborish uchun sistemanı to'ldirishni o'rganadilar. Turli xil ekstragenital kasalliklari bor ayollarda homiladorlik va tug'ruqning o'tishi xususiyatlari xaqida malumot oladilar. Yurak-qon tomir va buyrak kasalliklarida homiladorlik va tug'ruqning kechishi. Endokrin kasalliklarda homiladorlik va tug'ruqning kechishi xaqida mlumot oladilar. Anemiya kasalligida homiladorlik va tug'ruqning kechishi. Xavo-tomchi yo'li orqali yuqadigan kasalliklarda homiladorlikning va tug'ruqning kechishi. Rezus-kelishmovchilik va gemolitik kasallik tushuncha xosil qiladilar. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish. BTSYo muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishini va tibbiy yordam ko'rsatishni o'rganadilar(YuNISEF).</p> <p>O'qituvchilar o'quvchilarga bemorlarni parvarish qilish xususiyatlarini va ahamiyatini o'rgatadi. Sog'liqni Saqlash Vazirligining 2012 yil 18 maydag'i 137-sonli buyrug'iga 2-sonli ilovasiga ko'ra "Homiladorlar uy varaqasini"ni standart asosida to'ldirishni o'rgatish(YuNISEF).Ekstragenital kasalliklarda oqilona ovqatlanish bo'yicha tavsiyanomalar berishni o'rganadilar.Infektion va havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish o'rganadilar.Siydikni turli xil sinamalarga yig'ishni o'rganadilar. Dori vositalarini parenteral yo'l bilan yuborish.Xomila gipoksiyasi profilaktikasini o'tkazishni o'rganadilar.Homilador ayollarga namlangan kislorod berish.Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlar ayollarni kuzatish, davolash va reabilitatsiyasi davrida parvarish yo'l-yo'rig'i bilan tanishadilar.</p>			
5.	<p>Tug'ruqda hamshiraning vazifalari va parvarishi</p> <p>Akusherlik qon ketishlari va ularda shifokorgacha</p>	<p>Tug'ruq to'g'risida tushunchani xosil qiladilar.Tug'ruq davrlari va tug'ruqning haydovchi kuchlari. Tug'ruqning klinik kechishi xaqida malumot oladilar.Tug'ruqqa ayolarni psixoprofilaktik tayyorlash va tug'ruq vaqtida ona va bola uchun zarur bo'lgan parvarish buyumlarini tayyorlash. Tug'ruqning I, II, III-davrlarining kechishi. Tug'ruqni 3 davrini faol olib borish.</p>	15	N2 A8	5

	shoshilinch yordam.	Tug'ruqni og'riqsizlantirish. Tug'ruqni zamonaviy olib borishda ona bolani "teri—teriga" kontaktini ta'minlash, chaqaloq gipotermiyasini oldini olishda hamshiraning parvarishi. Samarali perinatal parvarishni tashkil etishni o'rganish.(YuNISEF) Tug'ruq tarixi va chaqaloqning rivojlanish tarixi varaqasining pasport qismini to'lg'azishni o'rganish.Tug'adigan ayol uchun o'rinn-joy va chaqaloq uchun kiyim-kechaklarni, parvarish anjomlarini tayyorlashni o'rganish.Tug'uvchi ayolda dard kuchi va davomiyligiga baho berishni amlga oshirish. Tug'ruqqa homilador ayolni psixoprofilaktik tayyorlashni. Chaqaloq tug'ilgach, issiqlik zanjirini ta'minlashni, chaqaloqning birlamchi artib-tozalashni kuzatadilar, uning ahvolini Apgar shkalasi bo'yicha baholaydilar.O'qituvchi o'quvchilarni asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarni tiriltirish usullarini ko'rsatadi: nafas markazini qo'zg'atish, kindik venasi orqali dori moddalarni yuborish, sun'iy nafas berish va hokazolarni o'rganadilar.Tug'ruqni uchinchi davrini faol boshqarishni o'rganadilar. Yo'Idoshni ko'chganlik belgilarini aniqlashni o'rganadiar.Yo'qotilgan qon miqdorini aniqlashni o'rganadilar. Akusherlik qon ketishlari tasnifini. Xomiladorlikning 1- va 2-yarmida qon ketish turlarini.Akusherlik shikastlari haqida tushunchani. Yo'Idosh tug'ilish davri va kichik chilla davri patologiyalari.Terminal holatlarda shoshilinch yordamni o'rganadilar. Pulsni sanash va baholash.Bola tashlashda yordam ko'rsatish uchun asbob-anjom tayyorlash. Bachadonning qisqaruvchanlik darajasini aniqlashni o'rganadilar. Yo'qotilgan qon miqdorini aniqlashni o'rganadalar. Kon ketganda shifokorgacha 1 yordam berish. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.		
6.	Chilla davri fiziologiyasi va patologiyasida hamshiralik	Chilla davri xaqida tushuncha. Jinsiy a'zolar involyusiyasi va loyixalar tabiat. Chaqaloqlarni ona suti bilan boqishning ahamiyati. Tuqqan ayol gigienasi hususiyatlari va hamshiralik parvarishi xakida tushuncha oladilar. Hamshiralik tashxisini	9 A4	N2 A4 3

